

UDK 711. 03(55/56)

**MAHALLA GUZARLARINING ZAMONAVIY INTERYER DIZAYNI VA HUDUD
INFRATUZILMASI BILAN UYG`UNLASHUVI**

Xatamova Ozoda Olimovna

Toshkent Arxitektura Qurilish universiteti

2-bosqich magistranti

Tel: +998908681626

xatamovaozoda779gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada aholining o‘zini-o‘zi boshqarishning noyob turi bo‘lgan “Mahalla” tamoyili hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligini va keskin qayta rivojlantirilayotkanini ko‘rsatadi. Mustaqillikdan so‘ng Respublikada fuqarolik jamiyatini qurishda mahallalarning roli kattaligini, uning mazmuni, funksiyalari kengayib borayotganligi tufayli mahalla guzarlarining mazmuni, tarkibi, me‘morchiligi kengaytirilgan yangi turini yaratish lozimligi taklif qilingan. Maqsad mahalla guzarlarni shakllantirishda, tarixiy an‘analarga asoslanib zamonaviy arxitektura va xona interyerlarini dizaynerlik yechimlarini topishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: shaharsozlik, shahar, tamoyillar, “obod mahalla” dasturi, mahalla, guzar, me‘moriy tuzilishi, funksional-rejaviy tuzilishi, inter‘er yechimlari.

Аннотатсия. В данной статье показано, что принцип «махалли», являющейся уникальной формой самоуправления населения, не утратил своего значения и стремительно перестраивается. Было высказано предположение, что после обретения независимости роль махаллей в построении гражданского общества в Республике должна быть выше, а ее содержание и функции должны быть расширены для создания нового типа махаллинских гузаров с расширенным содержанием, структурой и архитектурой. целью является поиск решений дизайна современной архитектуры и интерьеров помещений, основанных на исторических традициях образования махаллинских гузаров.

Ключевые слова: градостроительство, город, принципы, программа «блогоустройство махаллий», махалля, гузар, архитектурное строение, функционально-планировочная структура, интерьерные решения.

Abstract. This article shows that the principle of “Mahalla”, which is a unique form of self-government of the population, has not lost its significance and is being rapidly redeveloped. It was suggested that after independence, the role of mahallas in building civil society in the republic should be greater, and its content and functions should be expanded to create a new type of mahalla guzars with expanded content, structure and architecture. The aim is to find solutions for the design of modern architecture and room interiors based on historical traditions in the formation of mahalla guzars.

Keywords: *urban planning, city, principles, "prosperous neighborhood" program, neighborhood, guzar, architectural structure, functional-planning structure, interior solutions.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasining shahar va qishloq aholining yashash sharoitini keng ma’noda har tamonlama yaxshilash ulkan ijtimoiy – iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan masala bo‘lib, davlatimiz olib borayotgan siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasining katta tarixiy shaharlarining hozirgi zamon rivojlanishida bir qator ijtimoiy – iqtisodiy shaharsozlik masalalarini hal etilmoqda. Inson manfaatlari va haq huquqlari to‘liq hisobga oladigan, uning asriy orzu – umidlarini ro‘yobga chiqaradigan eng adolatli ijtimoiy makon – bu, fuqarolik jamiyati hisoblanigan mahalla guzarlaridir. Shular bilan bir qatorda O‘zbekiston shaharlari rivojlanishining hozirgi aholi yashash hududlarini tuzilishini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator dolzarb muammolarni ilgari surmoqda.

Bular aholi turarjoy va jamoat binolarining, aholi yashash hududlarining, mahallalarning funksional va rejabiy tuzilmalarini kengaytirish, arxitektura va badiiy tamonlarini asrlar davomida shakllanib kelgan shaharsozlik an‘analariga asoslangan holda loyihalash hamda xalqimizning jamoa bo‘lib yashashi, qo‘ni - qo‘shnichilik, mahallachilik kabi milliy an‘analarini va ularning samaradorligini oshirish, O‘zbekiston shaharsozlik, tabiiy iqlim sharoiti va boshqa o‘ziga xos tamonlarni hisobga olish bilan bog‘liqdir [1, 1-b.].

Shuni alohida takidlash lozimki, O‘zbekiston tarixiy shaharlarida (Toshkent, Samarqand, Buxoro) ularning ko‘p asrlik rivojlanishi jarayonida funksional va rejabiy tuzilishlarining shakllanishida o‘ziga xos bo‘lgan shaharsozlik tamoyillari – mahalla, guzar, daxa va mavzelar yuzaga kelgan. Ushbu tamoyillarning hozirgi zamon talablari asosida rivojlantirilish hamda milliy an‘analarni shakllantirilishi va hayotga tadbiq etilishi hamda O‘zbekiston shaharlari, ayniqsa ular turarjoy hududlarining funksional – rejabiy tuzilmalarini takomillashtirish imkonini beradi. Shu sababli an‘anaviy shaharsozlik tamoyillarini – mahalla, guzar, daxa va mavzelarni – hozirgi zamon sharoitida rivojlantirish milliy va amaliyotga tadbiq etish Respublika shaharsozligining dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar: Bulardan tashqari, Venesiya arxitekturasi biennalesida O‘zbekiston birinchi marta ishtirok yetadi. U mahallani dunyoga tanitadi.

O‘zbekiston 2022 yil 22-maydan 21-noyabrgacha Venesiyada arxitektura va san’at olamida keng ko‘lamli tadbir - XVII - Xalqaro me’morchilik biennalesi bo‘lib o‘tadi, unda O‘zbekiston o‘z milliy loyihasi: "Mahalla: shahar va viloyat hayoti" ni namoyish yetadi. O‘zbekiston milliy paviloni Biennalening asosiy joylari - "Arsenal" va "Giardini" chorrahasida joylashgan bo‘lib, mezbon Italiya paviloni bilan chegaradosh bo‘ladi. Debutant mamlakat bo‘lgan O‘zbekiston o‘zining "Mahalla: shahar va viloyat hayoti" loyihasini birinchi marta namoyish etadi [3, 6-b.].

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Oktyabr, 2025-yil

Shuningdek, bu mahallalarni madaniy meros sifatida saqlash muhimligini ta’kidladi. "Amalga oshirilgan barcha ishlar ma’lumotlar to’plamini saqlab qolishga yordam beradi va bu bizning bolalarimizga ajdodlari hayoti tarixini yetkazish uchun imkoniyatdir.

Ushbu qadriyatlar Milliy pavilyon loyihasida aks yetadi. "Mahalla: shahar va viloyat hayoti" ko’rgazmasining konsepsiyasi nafaqat O’zbekistonda mavjud bo’lgan, balki o’zbek jamiyatining o’ziga xos xususiyatlarini ko’rsatadigan jamoa tuzilishi haqida hikoya qiladi [2, 18-b.]. Mahallalar mintaqa, urf-odat, iqlim va turli xil shakllarga yega bo’lib, tarixiy jihatdan ular oilaviy aloqalar asosida qurilgan. Me’morchilik xususiyatlari, mahalla - bu irsiy asosga yega bo’lgan butun ijtimoiy tuzilma va bu hodisa har qanday y o’l bilan saqlanib qolishi kerak.

"Biz ajablanarli darajada omadlimiz, chunki Toshkent musulmon Sharqidagi turar joylari suratga olingan yagona shahar, shuning uchun" Mahalla: shahar va viloyat hayoti "loyihasi mustahkam hujjatli poydevorga ega bo’ladi.

"Venesiya Arxitektura Biennalesi zamonaviy mavzular va rejalashtirish va arxitektura kelajagi haqidagi mulohazalarni hal qilish uchun o’ziga xos kontekstni taqdim yetadi. Ushbu milliy ish hayotiy va samarali intellektual muhitga singib ketgan, yangi tarmoqlarni yaratish, boshqa kontekstlarni o’rganish va yangi tarkib yaratishga qaratilgan Xalqaro intellektual sahnadagi fikr-mulohazalar orqali O’zbekistonni aks yettirishning yangi usullarini o’rganishi va madaniy almashinuvdan foydalanish mumkin [3, 7-b.].

Loyiha hujjatlari mahalla sharoitining fazoviy fazilatlari, vaqt va turg’unlikdagi o’zgarishlari orqali aniqlanadi. Vazifada O’zbekistondagi zamonaviy san’at va madaniy amaliyotni rivojlantirish vazifasi bo’lgan, zamonaviy san’at markazining tadqiqot laboratoriyasining ishtirokchilari faol ishtirok yetadilar. Ular joylarda materiallarni to’playdilar, aholi o’rtasida so’rov o’tkazadilar va o’tgan yillardagi mahallalar portretini tiklaydilar, shu bilan birga xaritalarni modernizasiya qilmoqdalar. Albatta, mahalla – me’morchilik xususiyatlari jixatidan butun ijtimoiy tuzilma va bu idoralar, har qanday y o’l bilan saqlanib qolishi kerak.

Mahalla tizimi rivojlanish jarayoni avvaldan to hozirgi qadar shahar aholisi turmush tarziga mos hizmat qiluvchi shahobchalar muhim ahamiyatga ega bo’lgan. Hozirgi vaqtda ham huddi avvalgidek mahalla guzarlari aholi uchun funksional va kompazitsion markaz sifatida hizmat qilmoqda. Bu guzarlarda mahalla aholisining ijtimoiy hayoti o’z aksini topadi. Mahalla guzarlari ko’pincha piyoda – transport kesishuvi chorrahalarida joylashgan. Mahalla guzarlari qulayligi, ko’p maqsadlilik va keng qamrovligi bilan ajirilib turadi. Bu yerda funksional hususiyatlar va kompazitsion yechim uyg’unligi o’z aksini topgan.

Bunday guzarlar aholining, oilalarning kundalik hayotidagi birlamchi talablarini qondirish uchun qulay sharoit yaratadi. Mahalla guzarlarining joylashishi shahar qurilishi va uning funksional vazifasi bilan bog’liqdir. Savdo shahobchalariga ega bo’lmagan mahalla guzarlari arxitektura qurilish nuqtai nazaridan olib qaraganda bo’m – bo’sh, yarim ochiq kompazitsiyani tashkil etsa, piyoda yo’nalishlarida joylashgan savdo shahobchalari esa shahar markazining asosini tashkil etadi.

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Oktyabr, 2025-yil

Ayni paytda tegishli vazirlik hamda idoralarga mahalla guzarlari, choyxonalari uchun xo‘jalik, uy ro‘zg‘or anjomlari imtiyozli narxlarda berish, jamg‘arma tasarrufidagi kichik korxonalarni zarur dasgohlar, ehtiyot qismlar, xom ashyo mahsulotlari yarim tayyor mahsulotlar bilan taminlash vazifasi topshirildi. Mahalla aholiga ijtimoiy ma‘daniy xizmat ko‘rsatish sektorini bevosita turar joylarga yaqinlashtirish, server xizmati ko‘rsatishni rang baranglashtirish, fuqarolarning madaniy ehtiyojlari, talablari darajasida tashkil etishga intilmoqda. Jamg‘arma nodavlat tashkilot sifatidamahallalarda madaniy tadbirlar o‘tkazish, maishiy xizmat ko‘rsatish, yurar joylarni obodonlashtirish, komunal xizmatni yaxshilash, aholini suv gaz bilan taminlash ishlarida mahalliy hokimiyat organlariga yaqindan yordam bermoqda. Keying yillarda mahallalarda tandirxona, oshxona, kimyoviy tozalash, poyafzal tuzatish, savdo – sotiq shaxobchalari yaratildi va bu chora tadbirlar aholining ijtimoiy madaniy hayotini yaxshilash, turmush darajasini oshirishga qaratilgandir. “Zamonaviy mahalla” yagona arxitektura loyihasi asosida:

Mahallalardagi aholi xonadonlari ko‘p qavatli uylarni tashqi ko‘rinishi mahallalarning joylashishiga qarab bir xil ko‘rinishga olib kelinadi;

Mahallalarning ichki ko‘chalari, piyodalar yo‘lakchalari, yo‘l chetidagi ariq – zovurlar va yo‘l to‘siqlari kapital tamirlanadi.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi hududidagi yangi markaziy guzarlar.

Moddiy texnik bazasini yaxshilash maqsadida mahalla fuqarolar yig‘ini binolari rekonstruktsiya qilinmoqda va yangidan-yangi mahalla guzarlari qurilib (1-rasm), ular kompyuter texnikasi bilan ta‘minlanmoqda. Xususan, Toshkent shahri misolida har bir tumanda “Mahalla markazlari” qurib foydalanishga topshirilmoqda. Unda mahalla fuqarolar yig‘ini va barcha ijtimoiy soha tashkilotlari hamkorligida oilalarning barqarorligini ta‘minlash, yoshlar, ayniqsa ayollar jinoyatchiligini oldini olish ishlari ko‘zlangan.

E‘tiborli tomoni, joriy “Obod mahalla” davlat dasturida aholiga maishiy texnika vositalari va xo‘jalik jihozlarini sotib olish uchun tijorat banklari tomonidan beriladigan iste‘mol kreditlari hajmini maksimal darajaga oshirish, ipoteka kreditlari hisobidan mamlakatimiz hududlarida ko‘p qavatli uylar qurish rejalashtirilgan. Shuningdek, har bir tumanda ayollar uchun go‘zallik salonlari tashkil etilayotganligi diqqatga sazovor [1, 2-b.].

Muhokama. Tabiiyki, ushbu mulohazalar barcha hududlarda va mahallalarda qad rostlayotgan mahalla markazlari va kutubxonalar, aholi va o‘quvchilar qadami arimayotgan

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Oktyabr, 2025-yil

ziyo maskanlari k o‘paymoqda. Davlatimiz rahbari har bir chiqishlarida yoshlar tarbiyasi, kitob o‘qish, iste’dodlarni kashf etish hamda q o‘llab-quvvatlashga alohida urg‘u bermoqda. Bu esa har birimizni uyg‘oqlikka undaydi, o‘z hayotimiz uchun o‘zimiz mas’ul ekanligimizni anglatib, bir tanu irj on bo‘lib harakat qilishga da’vat etadi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng hukumatimiz tomonidan an’anaviy mahallalarni qayta tiklash, ularning jamiyatimiz hayotidagi ahamiyatini oshirish masalalariga alohida e’tibor berilmoqda [1, 2-b.]. O‘tgan davr ichida Respublika shahar va qishloqlarida mahallalarni shakllantirish va ularni rivojlantirish borasida katta ishlar olib borildi.

Mahalla guzarlarini quyidagi 3 tipi mavjud:

Tarixiy hudularda mahalla guzari;

Individual rejali ya’ni kam qavatli turar – joy hududlarda mahalla guzari;

Ko‘p qavatli binolar ya’ni mikrorayonlarda mahalla guzari.

Qadimdan mahalla guzarlari o‘ziga xos jamoat joyi hisoblanib, u yerda oqsoqol va mirob ma’muriyati, masjid, ko‘kalamzorlashtirilgan hamda hovuzli va loy supali choyxonalar bo‘lgan

Yirik va boy mahallalarda mahalliy masjidlar, maktab va madrasalar, hovuzlar, choyxonalar, savdo – sotiq rastalari, ko‘kalamzorlashtirilgan bozorlar mavjud bo‘lgan. Kichik yoki daromadli aholi joylashgan mahalla guzarlari faqatgina kichik hovuz ba’zida esa katta bo‘lmagan ko‘kalamzorlashtirilgan choyxona ega bo‘lgan.

Mahalla hizmat obyektlarini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, XXI asrga kelib qo‘shimcha masjid va katta bo‘lmagan guzarlarining barpo etilishi taqozo etilardi. Odatda mahallalar hunarmandchilik va savdo sotiqqa, hamda ma’daniy markazga ega bo‘lib, ular guzarlar deb atalgan. Guzarlar katta magistral yo‘llarda yoki shunday yo‘llarning kesishuv qismida joylashgan. Guzarlarda turli jamoat joylari jumladan, katta masjid, madrasa karvonsaroy, choyxona, temirchilik ustaxonasi, sartaroshxona, tegirmon, qassobxona, rastalar va katta bo‘lmagan bozor mavjud bo‘lgan. Bu guzarlar yo‘lovchilarga, shuningdek, qo‘shni mahalla aholisiga hizmat qilgan. Guzarlar mahallalarni yirik yagona hududga birlashtiruvchi muhim vazifani bajargan. Shahar tuzilishiga ko‘ra mahalla hududiy maydoni turlicha bo‘lgan. Shahar guzariga yaqin hududlarda aholi zichligi gektariga 350 – 400 kishini, mahalla hududi 1-2 gektarni tashkil qilgan. Chekka hududlarda ba’zan 15-20 gektarni tashkil etgan [4, 34-35-b.].

Toshkent shahar mahallalarni (Yangi Beltepa, Zafar Obod, Suzuk Ota, Namuna) tarixiy nuqtai nazardan tadqiq qilish natijasida ushbu mahallalarda mahalla guzarlarini tashkil qilishning o‘ziga xos jihatlari aniqlandi.

Bundan tashqari mahalla yosh avlod tarbiyasiga ham e’tiborqaratgan. Mahalla ishlari aholi majlislarida muhokama qilingan. Mahalla hayotida qariyalarga katta e’tibor va hurmat bilan qaralib turmush tarzi hamda ta’lim tarbiya masalalarida qari oqsoqollar bilan maslahatlashilgan. Qariyalarga hurmat natijasida mahalla guzarlarida maxsus qariyalar xonasi shakllangan bo‘lib ular ko‘pincha choyxona bilan yaqin joyda joylashgan.

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Oktyabr, 2025-yil


Natija. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mahalla hududida jamoat va savdo – sotiq markazlari ko‘p asrlar mobaynida hizmat ko‘rsatish shahoobchalari qurilishini ratsional ravishda aholi yashovchi hududlarda taqsimlanishi va “tabiiy tanlab olinish” jarayonida vujudga kelgan.

Mahalla fuqarolar yig‘ini guzarlarining me‘moriy yechimlarida asosiy e‘tibor uning qulay sharoitiga ega tarixiy rejaga qaratilgan. Chunki u yerda asosan katta yoshdagi oqsoqollar, mahalla faollari faoliyat olib borishadi. Ularning yoshlarini e‘tiborga olib xonalar joylashtiriladi. Mahalla markazlarining turlaridan kelib chiqqan holda bir yoki ikki qavatdan iborat bo‘lsa, asosan birinchi qavatga ko‘p foydalaniladigan quyidagi xonalar joylashtiriladi:

- mahalla qo‘mitasi raisi xonasi;
- mahalla qo‘mitasi sekretari xonasi;
- ayollar maslahatchisi xonasi;
- katta militsiya inspektori xonasi va h.k.

Kelajakda mahalla guzarlarini loyihalashda quyidagilarga e‘tibor berish lozim: Mahalla binosining me‘moriy tuzilishi yon atrofdagi binolarga hamohang tarzda ko‘rinishi ega bo‘lishi kerak. Mahalla guzarining nafaqat katta yoshdagilar balkim ayollar, yoshlar hamda bolalar uchun dam olish zonalarini tashkil qilish, ularga alohida yo‘laklar, ta‘madixonalar, choyxona, to‘garaklar hamda bolalar maydonchasini joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Aholining diniy, ijtimoiy kelib chiqishini inobatga olgan holda erkaklar, ayollar ma‘daniy hordiq chiqarishlari uchun alohida choyxonalar ajratilishi, aholiga birdek mos keladigan, milliy hamda zamonaviy uyg‘unligida ma‘daniyat uylari va klublar tashkil qilinishi lozim. Shuni aytib o‘tish joizki, mahalla guzarlarida mahalla yoshlari ma‘naviy jihatdan tarbiyalashga hizmat qiluvchi kutubxonalar, milliy hunarmandchilik to‘garaklari, sport zallarni tashkil etish, yoshlarni bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish va o‘sib kelayotgan yosh avlodni sog‘lom va barkamol qilib tarbiyalashda bularning ahamiyati kattadir.

Mahalla guzari hovli qismida tashqi choyxonaolar ko‘cha qismida bolalar uchun mo‘ljallangan maydoncha joylashgan. Hovli qismida salqin ob – havoni ta‘minlab beruvchi ayvonlar, markazida favvoralar va landshaft dizayn bilan bezatilgan. Bolalar maydonchasida sport gimnastika qurilmalari, arg‘umchoqlar, qum maydonchasi, qiziqarli atrakksionlar mavjud.



2-rasm. Mahalla guzarining fasad k o'rinishi va tarxi.

Bino asosan bir qavatdan tashkil topgan bo'lib, hovli va ayvonlardan ya'ni choyxona qismidan iborat (2-rasm).

Interyerda asosiy va qo'shimcha xonalar mavjud. Quyidagi xonalar:

- Ma'muriy;
- Dam olish uchun;
- Ish faoliyati uchun m o'ljallangan xonalarda iborat. Ushbu xonalar:
- Ma'muriy qismi xonalarga:
 1. Foye qismi;
 2. Kutubxonasi;
 3. Millitsiya inspektori xonasi;
 4. Ayollar maslahat xonasi;
 5. Majlis zal xonasi;
 6. Holl;
 7. Mahalla qo'mitasi rais xonasi;
 8. Mahalla qo'mitasi sekretari xonasi;
 9. San uzel.
- Dam olish qismi;
 1. Dam olish zali;
 2. Choyxona tashqi qismi ayvonlar;
 3. Ta'madixona qism;
 4. Dam olish va aholini qabul qilish xonasi;
- Ish faoliyati uchun m o'ljallangan xonalar;
 1. Qo'l yuvish xonasi.
 2. Oshxona;
 3. Idishlar anjomlar saqlanadigan ombor xona;
 4. Hovli qismi va bolalar maydonchasi.

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Oktyabr, 2025-yil


Binoning shakli odatiy to‘g‘ri-to‘rtburchak bo‘lsa ham uni o‘ziga chorlovchi va dizayn muhitining badiiy yechimi topilgan. Taqdim etilgan loyiha aholini zamonaviylik va qulayligi bilan jalb etish mumkin.

Mahalla guzarlari milliy va zamonaviy yo‘nalishda bo‘lib, asosan iteryerda yog‘ochlar, ganchga (gips) o‘yib ishlangan milliy naqshlar, oyna va sifatli materiallardan foydalanilgan. Loyihaning yana bir qulaylik tomoni zamonaviy texnika va jihozlar bilan jihozlangan. Dizayn muhitini yaratishda Modern uslubidan foydalanib, interyerdagi yumshoq och ranglar va jihozlar katta - kichik yoshdagi aholini jalb qila oladi (2-rasm). Interyerda devorlar, shiftlar milliy ganchlardan va zamonaviy uslubda figuralar bilan qo‘llanilgan (3-rasm)




3-rasm. Mahalla guzarining perspektiva k o‘rinishi

Shiftlarda asosiy zamonaviy oddiy yoritgichlar ya‘ni galagenlar bo‘lib, xona yorug‘ligini yuqori darajada ta‘minlab bergan. Binoning tashqi qismida pishshiq g‘ishtlar, mramr, temir va yog‘och materilari bilan foydalanilgan. Pishshiq g‘ishtlar devorlarda foydalanib, mustahkamligini va ob – havo sharoitiga chidamligini oshirib bera oladi.



4-rasm. Mahalla guzarining choyxona qismi

Temir materiallar ustunlarda, mramrlar kirish zina qismida va yog‘ochlar oyna chetlarida milliy naqsh o‘ymakorligida ishlangan. Ushbu materiallar bino va interyerlarda har qanday sharoitda ham uzoq vaqt mustahkam, chidamligi bilan ta‘minlab beradi. Binoning eksteryerida kulirang va och jigarang ranlardan foydalangan (4-5-rasm).



5-rasm. Mahalla guzarining majlis o‘tkazish zali va rais xonasi.

Xulosa. O‘zbekiston tarixiy shaharlarining aholi yashaydigan hududlari uzoq davom etgan rivojlanish jarayonida o‘ziga xos bo‘lgan tuzilishga ega bo‘lgan. Ular tuzilishining shakllanish jarayoni maqsadga muvofiqlik tamoyiliga asoslangan holda tabiiy yo‘l bilan borgan. Rivojlanishning har bir bosqichida maqsadga muvofiqlik tamoyili odamlardan qurilishning ma’lum qonun qoidalariga amal qilishini talab qilgan. Natijada tarixiy shaharlar aholi yashaydigan hududlarning tabiiy – iqlim sharoitlariga, aholining turmush tarziga, estetik va boshqa talablariga mos keladigan tuzilmalari shakllangan.

Ko‘p asrlik tajribalarning to‘planishi va ularning avloddan avlodga o‘tib borishi an’anaviy mahalla, guzar, daxa va mavzelarning shakllanishiga olib kelgan. Bular O‘zbekiston shahar va qishloqlari tuzilishiga xos bo‘lgan, o‘zini o‘zi boshqarishning noyob turidir.

O‘tgan uzoq tarixiy davr davomida aholining o‘zini o‘zi boshqarishning mahalla turi o‘zining hayotiy ekanligini ko‘rsatadi.

Toshkent shaharining “Eski shahar” qismida tarixiy shakllangan mahallalarda, XIX asrning ikkinchi yarimidan boshlab reja asosida hususiy uylardan tashkil topgan tumanlarda, ko‘p qavatli turarjoy binolaridan iborat mikrorayonlarda hozirgi kunda ham qo‘ni – qo‘shnichilik, mahalladoshlik va boshqa an’analar saqlanib qolmoqda, shu bilan bir qatorda ular zamon talablaridan kelib chiqqan holda yangi funksiyalar bilan boyitilib bormoqda [5, 28-b.].

Hozirgi kunda respublikamizda fuqarolik jamiyatini barpo etishda aholining o‘zini o‘zi boshqarish organlari rolining kattaligi, shularni e’tiborga olgan holda davlatimiz tomonidan bu masalaga jiddiy e’tibor berilayotganligi, mahallalar mazmunining, funksiyalarining boyitilishi, ular vakolat doirasining kengaytirilishi mahalla guzarlarining mazmunan boyitilgan, zamonaviy va milliy uslubda hal etilgan, ko‘rkam arxitektura va interyer yechimlariga ega bo‘lgan, yaxshi jihozlangan yangi turdagi mahalla guzarlari binolarini yaratishni taqozo etmoqda.

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Oktyabr, 2025-yil

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 27 iyundagi “Obod mahalla” dasturi t o‘g‘risida”gi PF- 5467-sonli Farmoni haqida.
2. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2021 y., 6-son, 69-modda. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.05.2022 y., 09/18/372/1255-son; 17.01.2023 y., 09/20/30/0061-son).
3. Halq so‘zi. «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi materiallari asosida. Uzbekistan, Tashkent – AN Podrobno.uz.
4. Mallitskiy N.G. Toshkent malla va mavzulari // ruschadan O‘. Q o‘chqarov tarj. /-T:G. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashri. T.2022.
5. Pulatov X.Sh. Arxitekturno - planirovochnaya struktura starogo Tashkenta (kontset XIX - nachalo XX vv). Avtoreferat dissertatsiyalari na soskaniysi uchennnoy stepeni nomzod arxitekturiyasi. T. 2022 yil